

**O'ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARShI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**“KASB TA'LIM” FAKULTYETI
3-KURS KTI-393 GURUH TALABASI
FARMONOVA MAFTUNANING “KASBIY TA'LIM
METODIKASI. O'QITUVChI NUTQ MADANIYATI”
FANIDAN TAYYORLAGAN**

REFERAT

BAJARDI: **talaba: M. Farmonova**

QABUL QILDI: **kat o'qituvchi D.Abdiyeva**

Qarshi-2015 yil

Mavzu: Mustaqil fikrlashni tarbiyalash. Kasb etikasi.

K I R I SH

Reja:

- 1.Komil insonning ma'naviy sifatlari.
- 2.Inson komilligining mezonlari.
- 3.Mustaqil fikrlashni tarbiyalash.
- 4.Erkin fikrlash tushunchasi.
- 5.Talabalarda kasb madaniyatini shakllantirish va
unda o'qituvchining roli.

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

K I R I S H

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy maqsadi – yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini barpo etish strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlarini uning komponentlari: shaxs, jamiyat va davlat, uzlucksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish vazifalarini hisobga olgan holda ishlab chiqish kabiladir. Milliy dasturni amalga oshirishda mavjud ta'lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o'zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta'lim jarayonini hamma bosqichlarida, uzlucksiz ta'lim tizimi ta'lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg'or-metodik ta'limlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga fan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzlucksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs – fuqaroning tashkil topishini ko'zda tutadi.

1.Komil insonning ma'naviy sifatlari.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat-ma'rifikat keng quloch yoygan, ilm-fan taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat ko'rish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolatli insonlar shakllanishi mumkin.

Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonch va bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli bo'ladi. Bunday jamiyat fuqarolarida sog'lom fikr, aql-idrok har doim ustivor bo'ladi. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, ahloqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobjiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobjiy majmuidan iborat. Sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi ahloqiy kategoriadir. Fazilat – alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobjiy sifatlar majmuidir. Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darjasini odob, ahloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi.

Odob – har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilişidir.

Xulq – odobning ichki to'liqcha ko'nikma aylangan ko'rinishidir.

Ahloq – «Jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan, xulq-odob normalari majmuasi» dir.

Madaniyat – «Jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobjiy yutuqlar majmuasi».

Ma'naviyat – инсон онгини акс эттирувчи барча ижобий, рухий, интеллектуал фазилатлар мажмуаси.

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongi sayqallaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin-asta takomillashib komil insonga aylanadi.

2.Inson komilligining mezonlari.

Inson qadri umrida qancha yil yashagani bilan emas, balki bu fursatdan qanday foydalanganligi, el va jamiyat manfaati yo'lida nima ishlar qilganligi bilan o'lchanadi. Mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir. Komillik uch bosqichdan (mezondan) iborat.

Jismoniy salomatlik

Ahloqiy poklik

Aqliy etuklik

Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqil fikrlash etakchi ustivor o'rin egallaydi. Talaba yoshlar tarbiyalashni qalban hohlab intilsalar, jismoniy va ahloqiy komillik darajasiga osonlik bilan erishsa bo'ladi. Ammo aqliy kamolotga erishish esa, asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo'riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy hatti—harakatlar uzlusiz faoliylik, fidoiylik, bilimga chanqoqlik namunalari evaziga bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshadi.

Mustaqil fikrlash sarchashmasi fahmlash, ya'ni anglashdan, fikr yuritishdan boshlanadi.

Anglash – biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib etish.

Mushohada – shu g'oya (fikr) ni mantiqan talqin qilish.

Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmularidan keragini sarflab olish va amaliyotga qo'llash.

Amaliyotda (praktikada) qo'llash – hayotda bir necha bor qo'llanilgan o'zining ijobjiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar echimi bilan solishtirib, xulosa qilish, so'ng tafakkur saviyasiga tayanib, yagona echimni tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir. Mustaqil fikr yuritish jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzlusiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu boisdan inson o'zining mustaqil fikrlashi, muomalasi (muloqoti), nutqi hamda ongli xulq-atvori tufayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi. Inson mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, xotirlab qolgan narsa va hodisalar to'g'riliqi, aniqligi, haqiqiyligi yoki ularning voqelikka mos tushishini

aniqlaydi. Borliqni bilish jarayonida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar, farazlar (taxminlar) chiqarilgan qarorlar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalr, xususiyat hamda muxanizmlarni anglab etadi. Sababi, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda tabiiy, ijtimoiy hodisa va voqealarni vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rib turish imkoniyatiga egadirlar. Mustaqil fikrlash aqliy faoliyat sifatida olib qaralganda, inson tomonidan masalalar, topshiriqlar echish nazarda tutiladi. Ularning shartlari, mohiyati, tuzilishi, shakllari va shaxsning anglash imkoniyatlari kuzatiladi. Masala, muammo, topshiriqlarni echish shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, mayli, qobiliyati, iste'dodi, salohiyati bilan bog'liq ravishda olib qaraladi, ularning talablarni qabul qilish, muayyan qarorga kelish, vositalar qidirish mustaqil fikr yuritishning mustahkam negizini tashkil qiladi.

Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayonida va ishlab chiqarishda shaxslararo (ob'ektiv va sub'ektiv) munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat mahsuli, muomala, me'yori, mustaqil fikrlash majmuasi tariqasida yuzaga keladi.

Jamoada tanqid, o'zini-o'zi tanqid qilish, o'zini-o'zi baholash, o'zini-o'zi nazorat qilish, o'zini-o'zi tekshirish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi namoyon qilish, o'ziga-o'zi buyruq berish, guruhiy mulohaza, mushohadadan iborat mustaqil fikr yuritish sifatlari shakllanadi. Insonni inson tomonidan idrok qilinishi, ya'ni notanish shaxsning ruhiy holatini aniqlash, taxmin qilish eng zarur alomat va belgilarni to'plash ham mustaqil fikrlash mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichli bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay shart-sharoitni talab qiladi, muayyan xulosaga kelinadi.

3.Mustaqil fikrlashni tarbiyalash.

O'quv jarayonida fikr yuritishning, tafakkur qilishning o'zaro mustahkam bog'langan berk zanjiri vujudga keladi. Mustaqil fikr yuritish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Mustaqil fikr yuritish faoliyatida eng avvalo hal qilinishi zarur bo'lgan muammo inson tomonidan yashilab anglab (tushunib) olinishi kerak. Agarda inson oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga keltirilmagan bo'lsa, u holda u biron-bir narsa to'g'risida fikr ham yuritmaydi. Mushohada ham qilmaydi. Inson tanballikka moyildir. Mabodo shaxs hal qilinishi shart bo'lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to'laroq ma'lumotga ega bo'lsa, uni oqilona echish yo'li va vositalarini shunchalik engillik bilan topadi.

2. Muammo yoki masalani hal qilish uchun eng zarur bo'lgan barcha bilimlarni, muhim munosabatlar, urf-odatlar, bog'lanishlarni yaxshi bilishi va uni tadbiq qila olishi zarur. Buning uchun shaxsiy tajribada uchragan holatdan, usullardan holatlarni xotirada saqlash va uni o'xshash muamollarni echishda qo'llash jarayoni amalga oshiriladi.

3. Masala yoki muammoga taalluqli faraz ilgari suriladi, bosqichlar tahlil qilinadi, echish to'g'risida mulohazalar bildiriladi. Turli variantlar haqida fikr yuritiladi, ular o'zaro qiyoslanadi va eng samarali variantlar ajratiladi.

4. Muammo oldiga qo'yilgan gipotezani muayyan mezonlar yordami bilan tekshirish zaruriyati tug'iladi. Uni tekshirish uchun o'zaro o'xshash holatlar ma'naviy, shakliy, tuzilmaviy jihatdan taqqoslanadi. Bu o'rinda ijodiy xayol materiallaridan atroflicha foydalilanadi, ya'ni ijodiy rejalar tuzish, umumlashma obrazlar yaratish, maqsad natijalarini ko'z o'ngiga keltirish, taxminiy munosabatlarni idrok qilish amalga oshiriladi. Uning xaqqoniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqliy hatti-harakatlar tizimini tadbiq qilib ko'rilib va ayrim o'zgarishlar kiritish mo'ljali oydinlashtiriladi. Gipoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz va sintez qilinadi, muhim alomatlari ajratiladi, uning to'g'riliqi, xaqqoniyligi bo'yicha tezkor hukm va xulosalar chiqariladi.

5. Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza to'g'riliqi yoki noto'g'ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish ob'ektidan siqib

chiqariladi va yangi farazlar, o'ylar, taxminlar qabul qilinadi yoki o'ylab topiladi. Yangi amaliy gipoteza fikran bir necha marta tekshiriladi va undan so'ng amaliyotga joriy qilish uchun sinashga tavsiya qilinadi. Ta'kidlab o'tilgan mulohazalarning aksariyati konstruktiv texnik masalalarni hal qilishda, kashfiyotlarni yaratishda, ixtirochilik takliflarida, rasionalizatorlikda, texnologik ko'rilmalarni joriy qilishda turli tuman variantlar, texnologik kartalar va boshqa modellar fikran tahlil qilinadi. So'ngra ulardan eng ma'quli, omilkori, eng maqsadga muvofiqi tanlanadi va uning ustida bosh qotiriladi.

6. Muammo va masalani hal qilish, echish, olingan natijalarni to'g'rilinga ishonch, qanoat hosil qilish uchun echuvchi shaxs uni tekshirish bilan mustaqil fikr yuritish hatti-harakatlarini yakunlaydi. Ana shu fikriy operasiyalar, mulohazalash shakllaridan so'ng masala (topshiriq) batamom hal qilinadi va bu muammo to'g'risida o'ylash nisbiy jihatdan vaqtincha to'xtatiladi. Erishilgan muvaffaqiyat hayotga joriy qilinadi. Boshqacha aytganda bu muammo va uning echimini topish uchun qilingan harakatlar va echimlar kelgusi muammoli vaziyatni hal qilish uchun kerak bo'ladi. Bu tajribalar ongning xotirasida saqlab qo'yiladi va navbatdagi hayotiy muammolarni echishda chuqur o'ylash, mushohada qilish, tafakkur saviyasiga mos, hayotiy tajribaga tayanib echim izlash va uni orttirgan hayotiy tajribalar bilan qiyoslash, undan keyingina yagona oxirgi xulosaga kelish va uni hayotda qo'llash kabi berk aylanma tizim (sistema, mexanizm) hosil bo'ladi. Bu tizim cheksiz davom etaveradi. Har bir shaxs o'z aql-idroki, tafakkurning tarangligi, intellektual shakllanganligiga xos va mos holda muammolarni echadi va hayotga joriy etadi.

Inson hayotga joriy etgan muammolar echimining saviyasiga qarab, kishilar orasida o'z o'rni va mavqeini egallab boradi. Shu yo'sinda shaxsning mustaqil fiklash qobiliyati sayqallanib boraveradi. Fikr inson faoliyati, uning o'zligini kuchi, qudratini, o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir. Insonning erkin va ozodligi uning fikrining mustaqilligi, erkinligidan boshlanadi. Fikr erkinligi – insonning asosiy ma'naviy-insoniy xuquqidir. Shuning uchun O'zbekiston respublikasi mustaqilligining birinchi kunlaridanoq «Vijdon erkinligi» haqidagi

qonuni qabul qilinishi bo'ldi. Chunki bu qonun insonning asosiy ma'naviy-insoniyu xquqi fikr erkinligini qonuniy kafolatlagan edi. Shuning uchun ma'naviy-insoniyu qadriyatlarning asosi bo'lgan insonning o'zligini anglash fikr erkinligini anglashdan boshlanadi. Fikrni – inson miyasida ma'nolarning o'zaro bog'lantirilishi va rivojlantirilishi desak ham bo'ladi. Fikr haqida fikrning quvvati – uning ilmiyligi, chuqurligi, fikrning ziynati – ezgu niyat, maqsadga bag'ishlanganligi, kengligi – keng qamrovligi, sofligi-pokligi, aniq sohaga yo'nalganligi mavjud.

Mustaqillik, erkinlik, bunyodkorlik asosan ijodiy, amaliy, nazariy tashabbusda namoyon bo'ladi. Tashabbus iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning, insonlarning yangi talabiga mos keladigan moddiy, ma'naviy mahsulotlar yaratishga qaratilgan taklif, g'oya, fikr yoki amaliy jarayondir. Biror sohada tashabbus ko'rsatish uchun har kishi o'zi faoliyat ko'rsatayotgan sohani mukammal bilishi, bu sohani mahsuliy jarayonida nimalar taraqqiyotga, rivojlanishga, mahsulot sifati, turi, narxiga to'siq bo'layotganini aniq bilishi bu kamchiliklarni tugatishga qaratilgan aniq texnologiya g'oya, amaliy takliflarga ega bo'lishi lozim. Tashabbuskorlik sifati insonlarning ichki faollik omillari: birinchidan, har bir kishining o'z qiziqishi, o'quv qobiliyatiga mos hayot yo'lini topish orqali o'z qadrini ro'yobga chiqarish bo'lsa, ikkinchidan shaxsiy manfaatdorlik, shaxsiy mulkning faqat moddiy emas, balki ma'naviy qadriyatlarni ishga tushirish orqali o'zini va davlat, jamiyat va olamni takomillashtirishga hissa qo'shishdan iborat.

4.Erkin fikrlash tushunchasi.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan quyidagicha rejallashtiriladi va tartibga solinadi:

- a) talabaning qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejallashtirish;
- b) shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi

manbalarni izlab topish;

- v) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qaerda ishlashni rejorashtirish.

Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.

Mukammal insonni tarbiyalashni ikkita ko'rsatgich bilan bog'lash mumkin:

Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatimiz mezoniga kirmagan, o'zgalarning nafratini qo'zg'atadigan hatti-harakatlardan o'zini tiya bilish.

Mamlakatimizda komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilingan komil, ma'naviy barkamol shaxs deganda ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ilm-ma'rifatlilik kuch-quvvat manbai, qalbga nur, o'ziga ziyo bag'ishlaydigan buyuk ne'matdir. Shu sababli ham inson hayotda qunt bilan ilmni o'rganishi tufayli aql-zakovati yuksaladi, baxtli hayot uchun kurashadi. Aql – insonning epchillik, bunyodkorlik, insonparvarlik sifatlari majmuasidan iboratdir. Insonlarning bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, u shunchalik kamtar bo'ladi. Kamtarlik – donolikning belgisidir. Dono kishilar bilganlaridan ko'ra bilmaganlari ko'p ekanini tasavvur eta oladilar. Buyuk faylasuf Suqrotning «Men bir narsani bilaman, u ham bo'lsa – hech narsani bilmasligimdir» degan fikrlarida ham shu ma'no bor. O'qituvchining ko'pqirrali va murakkab faoliyat zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: yoshlarni o'qitish, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, targ'ibot ishlarini olib borish va boshqalar. Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi. Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi er yuzidagi eng murakkab va qimmatli narsani – odamning ichki dunyosini tarkib toptirish bilan

shug'ullanadilar va buni odam hayotining eng ma'suliyatli davrida (bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida) amalga oshiradilar.

Pedagoglik kasbining xarakteri belgilaridan biri shuki, jamiyat oldida o'qituvchining ma'naviy ma'suliyati juda yuksak bo'ladi.

Buyuk Yunon faylasufi Platon, agar kavushdo'z yomon usta bo'lsa, davlat unchalik ko'p zarar ko'rmaydi, fuqarolar birmuncha yomonroq kiyinib yuradilar xolos, ammo bolalarmi tarbiyalovchi kishi o'z vazifalarini yomon bajarsa, mamlakatda nodon va yomon odamlarning butun bir avlodi vujudga keladi deb yozgan edi. Pedagogik faoliyatning xususiyati shundan iboratki, o'qituvchi o'zining o'quvchilarga berayotgan bilim va fazilatlarning hammasiga o'zi ega bo'lishi lozim, bundan tashqari, o'zi bolalarga shunday ta'sir o'tkazishi kerakki, bolalar o'qituvchi berayotgan narsalarni (bilimlarni ham, e'tiqodlarni ham) o'zlariga o'zlashtirib va singdirib olishlari lozim. Buning uchun o'qituvchi ham o'qitishi, ham o'zi o'qishi, tarbiyalashi va o'zini o'zi tarbiyalashi bilan shug'ullanishi lozim bo'ladi. «Tarbiyachi shaxsning yosh qalbga bo'lgan ta'siri shunday bir tarbiyaviy kuchdirki, darsliklar ham, ahloq to'g'risidagi nasihatlar, jazolash va rag'batlantirish sistemasi ham bu kuchning o'rnini bosa olmaydi» deb yozgan edi buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy. Pedagogning ma'suliyati haqida buyuk L.Tolstoy shunday deb yozgan edi «Tarbiyalash muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tarbiyalovchi kishilar sira to'xtamay o'zlarini tarbiyalab borishlari kerak».

5.Talabalarda kasb madaniyatini shakllantirish va unda o'qituvchining roli.

Barkamol shaxs tarbiyasi jarayoniga bunday yondashish kompleks xarakterga ega bo'lib, ushbu jarayondagi ta'lim-tarbiyaning har bir bosqichida puxta tayyorgarlikka ega bo'lishlikni va maqsadga etishlikni kafolatlaydi. Maqsadga etishlikni avvaldan ishlab chiqilgan mezonlar asosida olib boriladi. Ta'lim-tarbiya mazmuniga qarab yoki ushbu jarayonni boshqarish mazmuniga qarab maqsadlar tizimi (ketma-ketligi) yoki yaxlit yagona bir maqsad bo'lishi mumkin va u Davlat

ta'lim standartlariga yoki mutaxassislarga qo'yiladigan jahon ta'limi talablari asosida shakllangan (tuzilgan) bo'ladi.

Tarbiyalayotgan barkamol avlodimiz, qo'yilgan maqsadga javob bergan holatga kelgandan keyin amaliy faoliyatga (mehnat bozori) yo'llanma beriladi, aks holda qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanib, barkamol avlod tarbiyasi maqsadiga mos qo'shimcha ta'lim-tarbiya olib boriladi.

Barkamol avlod tarbiyasining qayd etilgan ilmiy asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa ta'limni boshqarishda istiqbolli natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi va eng asosiy «Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», degan ezgu niyatlarimizning og'ishmay amalga oshishiga fundamental asos bo'ladi.

O'quvchi talabalarni intizomli qilib tarbiyalashning asosiy shartlari va yo'llari quyidagilardir.

1.O'qishni to'g'ri tashkil etish – o'quvchilarni intizomli qilib tarbiyalashning zarur shartidir.

2.Mehnat va dam olish rejimi – o'quvchilarni intizomli qilish vositasidir. Har doim rejimga rioya qilish o'quvchilarni mehnat va dam olishni oqilona tashkil etishga odatlantiradi.

3.Yurish-turish qoidalarini o'quvchilarga tushuntirish. O'quvchilarni bilim yurtida va undan tashqarida o'zlarini qanday tutishlariga doir tushunchalar berish juda muhimdir. Ammo o'qituvchining maslahatlari va istaklari amalda qilib ko'rsatilmasa va bunga bolalar odatlanmasa, odatda, mo'ljallangan maqsadga erishilmaydi.

4.O'quvchilarni hatti-harakatda intizomli bo'liga o'rgatish. Hatti-harakatda intizomli bo'lish normalari va qoidalarini bajarish o'quvchilarning odati bo'lib qolishi, ichki ehtiyojiga aylanishi lozim.

5.Bolalarni ongli intizomli qilib tarbiyalashda rag'batlantirish va jazo berishning roli.

O'quvchini yaxshi hatti-harakati va xulqi uchun rag'batlantirish uning o'z kuchiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, unda o'z xulqini tag'in ham yaxshilash istagini tug'diradi.

Intizomni buzgan o'quvchilarga nisbatan turli jazo berish choralari qo'llaniladi. Ishontirish va rag'batlantirish choralari ko'ngildagidek natija bermaganidagina bu choralar qo'llaniladi. O'quvchiga jazo berilganida uning shaxsini kamsitmaslik, uning insoniy qadri-qimmatini tahqirlamaslik kerak. Pedagoglikka xos odob doirasidan chiqmaslik, qo'rslik va dag'allik qilishga yo'l qo'yimaslik ayniqsa muhimdir.

Tarbiyaning mazmuni, uning tashkil etilishi va metodlari bolalarni o'qitishning hamma bosqichlarida bir xilda bo'lishi mumkin emas. O'quvchilar o'sib, rivojana borganlari sari va yoshlari oshgan sari tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi va metodlari asta-sekin murakkablasha boradi.

Shuningdek yoshi kattalasha borgan sari ularda alohida o'ziga xos individual xususiyatlari ham o'zgara borishi mumkin. Umuman olganda buni ko'rsatuvchi fakt bolalarning xarakteriga bog'liq bo'lib uning ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ladi.

1. Mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan xususiyatlar (mehnatsevarlik, mahnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, ma'suliyat, dangasalik, qo'nimsizlik va boshqalar).
2. Insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan sifatlar (odoblilik, mehribonlik, jonsaraklik, dilgirlik, muloqotga kirishuvchanlik, g'amxo'rlik, rahm-shavqat va boshqalar).
3. O'z-o'ziga munosabatga aloqador xarakter sifatlar (kamtarlik, kamsuqumlilik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish, o'z-o'zini tanqid, ibo, sharmu-hayo, manmansirash va boshqalar).
4. Narsalar va hodisalarga munosabatda namoyon bo'ladigan xususiyatlar (tartiblilik, oqillik, saranjom-sarishtalik, qo'li ochiqlik, ziqlanalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar).

Demak har bir o'quvchining xulqini belgilab beruvchi xarakter xususiyatlarini bilish katta ahamiyatga ega. Mana shularning hammasini bilib

olgan o'qituvchi o'z o'quvchilarini kerakli fazilatlarga ega qilib tarbiyalash jarayonida ularning har biriga o'ziga xos ravishda muomala qilish yo'lini topa oladi.

Inson qobiliyatlarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi hamda uning ta'limga nisbatan turli – tuman ehtiyojlarining qondirilishi milliy va umumbashariy qadriyatlar ustivorligining ta'minlanishi, inson jamiyat va atrof – muhit o'zaro munosabatlarini uyg'unlashuvini amalga oshirish borasida qo'llaniladi.

Xulosa

« **Mustaqil fikrlashni tarbiyalash. Kasb etikasi** » mavzusini o'rganish Inson qadri umrida qancha yil yashagani bilan emas, balki bu fursatdan qanday foydalanganligi, el va jamiyat manfaati yo'lida nima ishlar qilganligi bilan o'lchanadi. Mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisi ekanligini qanday anglab etish mumkinligini anglab etish mumkin.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, ahloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilingan komil, ma'naviy barkamol shaxs deganda ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ilm-ma'rifatlilik kuch-quvvat manbai, qalbga nur, o'ziga ziyo bag'ishlaydigan buyuk ne'matdir. Shu sababli ham inson hayotda qunt bilan ilmni o'rganishi tufayli aql-zakovati yuksaladi, baxtli hayot uchun kurashadi. Aql – insonning epchillik, bunyodkorlik, insonparvarlik sifatlari majmuasidan iboratdir. Insonlarning bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, u shunchalik kamtar bo'ladi. Kamtarlik – donolikning belgisidir. Dono kishilar bilganlaridan ko'ra bilmaganlari ko'p ekanini tasavvur eta oladilar. Buyuk faylasuf Suqrotning «Men bir narsani bilaman, u ham bo'lsa – hech narsani bilmasligimdir» degan fikrlarida ham shu ma'no bor. O'qituvchining ko'pqirrali va murakkab faoliyat zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: yoshlarni o'qitish, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, targ'ibot ishlarini olib borish va boshqalar.

Shunday ekan, Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Т.: 1997 y.
2. И.А.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. — Т.: «Маънавият», 2008.
2. И.А.Каримов. Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: «Шарқ», 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги қонуни// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент; «Шарқ», 1997, 20-29 бетлар.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисидаг»ги қонуни// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент; «Шарқ», 1997, 31-61бетлар.
5. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. Қўлланма. — Т- «Ўқитувчи», 2004.
- 6.G'ayullaev N. va boshqalar. Pedagogika. T.: 2000 y.
- 7.Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. T.:2001 y.
8. «Таълим самарадорлигини ошириш йўллари» мавзусидаги семинар-тренинг материаллари. Т- 2002 й.
9. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари (ўқув қўлланма). Т- «Фан»нашриёти, 2006.
10. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Тошкент. ТДПУ, 2003.-174б.

